

**TIBBIY YO'NALISHDAGI O'RTA MAHSUS T'ALIM MUASSASALARIDA  
MUTAXASISLIK FANLARINI O'QITISHDA AKTDAN FOYDALANISH MASALASI**

D.K.Sipatdinova  
G Dawletmuratova  
G.Bekmuratova

*Nukus shahar №1 sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi kunda Respublikamizda ta'lim sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad albatta kelgusida davlatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan yetuk mutaxasis kadrlar etishtirib chiqarish nazarda tutilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Axborotlashgan jamiyat, ta'limda AKTni qo'llab o'qitish, ta'limni axborotlashtirish, talim jarayonini axborotlashtirish.*

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad albatta kelgusida davlatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan yetuk mutaxasis kadrlar etishtirib chiqarish bo'lib, buning uchun ta'lim jarayonini jahon andozalari asosida tashkil etish shartligi aniq ko'rinib bormoqda. Jahon standartiga javob beradigan darajadagi bilimga ega mutaxasislar tayyorlashda ta'lim jarayonida asosiy e'tibor va talab asosan akademik litsey va o'rta maxsus ta'limi jarayoniga va ta'lim oluvchilariga qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi joriy etilgan bo'lib boshlang'ich va umumiy o'rta talim, akademik litsey va o'rta maxsus talimi bepul, majburiy ixtiyoriy ta'lim tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasalarida kompyuter sinflari, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan laboratoriya xonalari, elektron kutubxonalar zamonaviy talab doirasidagi konferensiya zallari bilan ta'minlash ishlari davlatimizning ta'lim sohasidagi oldiga qo'ygan eng asosiy maqsadidir.

O'quvchilar bevosita ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni texnik vositalar yordamida kuzatadi, ya'ni vizual ko'rish amalga oshiriladi;

- o'quv materiallari chuqurroq va mukammalroq o'zlashtiriladi;
- vaqt tejaladi;
- olingan bilimlar amalda qo'llaniladi va o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Talim jarayonini axborotlashtirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlashda nafaqat o'zimizda ishlab chiqarilayotgan texnik va dasturiy vositalar balki chet elda aynan Koreya Respublikasida ishlab chiqarilayotgan texnik va dasturiy vositalardan foydalanilmoqda. Ta'lim tizimini, umuman jamiyatning barcha sohalarini kompyuterlashtirishda, axborot texnologiyalari bilan taminlashda Koreya Respublikasi bilan hamkorligimiz juda katta samara bermoqda.

Ta'limni axborotlashtirish jarayonlarini tashkil etish axborotni uzatish, qayta ishlash, to'plash va saqlash, bilimlarni tartiblashtirish va avtomatizatsiyalash kabilarni nazarda tutuvchi quyidagi asosiy texnologiyalarni nazarda tutadi:

1. Elektron darsliklar, trenajerlar, laboratoriya praktikumlari, test tizimlaridan iborat kompyuterli o'qitish dasturlari.

2. Personal kompyuterlar, videotexnika, optik diskli axborot to'plagichlardan foydalanib yaratiladigan multimedia texnologiyalari bazasidagi o'qitish tizimlari.
3. Turli predmetlar sohalarida foydalaniladigan intellektual va ekspert o'qitish tizimlari.
4. Bilimlar sohalari bo'yicha ma'lumotlar bazalari taqsimoti.
5. Elektron pochta, telekonferentsiyalar, lokal va regional aloqa tarmoqlari, ma'lumotlar almashuvi tarmoqlari va shu kabilar.
6. Elektron kutubxonalar, tarqoq holdagi va markazlashgan nashriyot tizimlari.

Lekin bu texnologiyalarni yaratishning va ular asosida ta'limni amalga oshirishning, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ilmiy, ilmiy-uslubiy, didaktik asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Takidlash joizki, bu texnologiyalar doirasidagi ayrim dasturiy va texnikaviy vositalar turli oliy ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan tashkilot va firmalarda ishlab chiqilmoqda (odatda parallel, ko'pincha esa bir-birini qaytargan holda). Lekin bu industriyani Respublika miqyosida yagona metodika va yondoshuv asosida, o'zaro moslikni ta'minlanishini nazarda tutib muvofiqlashtirib borishga juda katta zarurat va ehtiyoj sezilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarini axborotlashtirish" Loyihasi doirasida tashkil etilgan Multimediya ta'lim dasturlarini rivojlantirish Markazi, buyurtmachi sifatida bunday muvofiqlashtirish ishlarini ham o'z zimmasiga olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ta'limda AKTni qo'llab o'qitishda yuqori samaraga erishilayotganini ko'rsatuvchi bir qator ilmiy izlanish va pedagogik eksperimentlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Aytish joyizki, bu izlanish va eksperimentlar epizodik, uzuq-yuluq xarakterga ega. Xozirgi kunda umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi qismini AKTdan foydalanib o'tsa qanday samara berishini, yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda.

Tibbiy yo'nalishdagi o'rta mahsus ta'lim muassasalarida mutaxassislik o'qitilayotgan mutaxassislik fanlarida AKTni qo'llashga talab juda yuqori chunki tibbiyot o'rta mahsus ta'lim muassasalarida mutaxassislik aksariyat fanlarni o'zlashtirishda talabalar zarur va yetarli malaka va tajribaga ega bo'lishlari zarur. Tibbiy yo'nalishdagi o'rta mahsus ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda mutaxassislik fanining mazmuni va uning xususiyatlari bilan belgilanadigan o'qitish metodikasi, fanlar yuzasidan tayyorlanadigan didaktik materiallarni amalyotdagi jarayonlarni adekvat ifodalay olishi, barcha tibbiy jarayonlar mohiyatini tajriba va laboratoriya mashg'ulotlari yordamida ko'rsatib namoyish etish va tajriba natijalarini umumlashtirish, mutaxassislik fanlariga tegishli muammoli, vaziyatli masalar yechishdagi qarorlar qabul qilish murakkabligi, umuman amalyotdagi hayotiy jarayonlar haqidagi tasavvurlarni o'quvchi talabalar ongida to'g'ri akslantirish bilan bog'liq dolzarb muammolar mavjud. Ya'ni, masalan:

- ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan inson ichki azolarining tuzilishiularning faoliyati to'g'risidagi mavzularni o'qitishda kompyuterli modellashtirishga asoslangan jonli, harakatli va animatsion multimediyali namoyishni o'qitishning an'anaviy - "qog'oz texnologiyalari"ga asoslanib amalga oshirishning juda qiyinligi;

- laboratoriya sharoitida namoyish qilish imkoniyati bo'lmagan tajribalarni o'z ichiga oluvchi mavzularni o'qitishda og'zaki bayonga tayanish, bu bilan o'quvchilarning tasavvurini yetarli darajada shakllantiraolmaslik;
- ba'zi tibbiy jarayonlarni namoyish etuvchi yuqori darajadagi aniqlikni talab qiladigan, tibbiy strukturaviy va texnologik jihatdan murakkab tibbiy uskunalarining kasb - hunar maktablari sharoitida qo'llashning imkoniyati yo'qligi va buning oqibatida o'quvchilarda tegishli bilim va tasavvurlarni shakllantiraolmaslik;
- an'anaviy darslik va o'quv qo'llanmalarining strukturaviy tuzilishida, ularning dizaynida talabalarni faollikka undovchi, ularning o'quv motivlarini kuchaytiruvchi omillarning bo'shligi;

Zero yuqoridagi muammolarni hal qilishda AKT imkoniyatlaridan foydalanish o'rinli, qolaversa, zarur va kerakligini ko'rish mumkin. Shu sababli ta'lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kiritildi va bu orqali fanlarni o'qitishda samaradorlikka erishilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod - Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. Toshkent: Shark, 1997.y
2. Safojev B.O'. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari (o'quvslubiy qo'llanma) T. 2006
3. Плонская Е.Л. "Язык HTML. Самоучитель." М: ООО "И. Д Вильямс", 2003
4. [http://edu.nstu.ru/dem\\_new/usl\\_ob.htm](http://edu.nstu.ru/dem_new/usl_ob.htm)
5. <http://www.intuit.ru/>